YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 22-aprel, №15 (8033)

BU DIYORNING ENG KATTA BOYLIGI – HECH SHUBHASIZ, UNING MEHNATKASH, MARD VA OLIJANOB ODAMLARIDIR, ENG KATTA IMKONIYATI – UNING AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV

TARIXIY G‘ALABA: JAVOHIR SINDOROV JAHON TOJI UCHUN NOMZODLAR TURNIRIDA CHEMPION!



Shaxmatimiz tarixida birinchi marotaba Javohir Sindorov Nomzodlar turnirida g‘alaba qozonib, tom ma’noda tarixiy natijaga erishdi.

Musobaqa davomida u dunyoning eng kuchli grossmeysterlariga qarshi yuksak mahorat va katta jasorat bilan kurash olib bordi, har bir bahsda qat’iyat, kuchli iroda va intellektual ustunligini namoyon etdi. Ayniqsa, bir marta ham mag‘lubiyatga uchramay, 14 ta partiyada 10 ochko to‘plagani, natijada ochkolar va g‘alabalar soni bo‘yicha rekordlar o‘rnatgani shaxmat olamida kamdan kam uchraydigan noyob hodisadir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida vatanga qaytgan shaxmatchimiz Javohir Sindorovni sharaflashga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari marosimda so‘zga chiqib, Javohir Sindorovni mazkur tarixiy zafar bilan yana bir bor samimiy qutladi. Bu butun xalqimizning, Yangi O‘zbekistonning g‘alabasi ekanini ta’kidladi.

Albatta, hech bir natija o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning zamirida uzoq yillik tinimsiz mehnat, bolalikdan orttirilgan tajriba, qat’iy iroda, temir intizom, va, albatta, ustoz va murabbiylarning sabog‘i, ota-ona, bobo va buvijonlarning duosi mujassam. Fursatdan foydalanib, mana shunday o‘zbek o‘g‘lonini tarbiyalab, voyaga yetkazgan bobong va buvingga, ota-onanga, ustoz va murabbiylaringga yana bir bor o‘zimning minnatdorchiligimni bildiraman, - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, Javohir Sindorov turnir davomida shaxmat taxtasi ustida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mustahkam iroda, o‘ziga ishonch, chuqur tafakkur va sabr-bardoshni namoyon etdi. Ayniqsa, Hindiston, AQSh, Xitoy, Niderlandiya, Germaniya va Rossiya vakillari bo‘lgan super grossmeysterlarga qarshi bosiqlik va mardonavorlik bilan kurash olib borgani alohida e’tirof etildi.

Davlatimiz rahbari Javohir Sindorovning bu yuksak yutug‘i mamlakatimizda sportga, jumladan, shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlikning amaliy samarasi ekanini ta’kidladi. Bugun Yangi O‘zbekistonda ana shunday g‘olib, mard va matonatli yoshlar kamol topayotgani barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag‘ishlaydi. Shu ma’noda, bugun FIDE reytingidagi eng kuchli besh shaxmatchidan ikki nafari o‘zbek o‘g‘loni ekani milliy shaxmat maktabimizning salohiyati va nufuzi tobora yuksalayotganidan dalolat beradi. Bularning barchasi minglab iste’dodli yoshlarimiz, umidli shaxmatchilarimiz uchun katta motivatsiya bo‘lishi ta’kidlandi.

Marosimda Javohir Sindorov oldida turgan navbatdagi yuksak marralar haqida ham so‘z yuritildi. Uning jahon shaxmat toji uchun bo‘ladigan hal qiluvchi bellashuvda munosib ishtirok etishiga, o‘zbek shaxmat maktabining salohiyati va shon-shuhratini yana bir bor butun dunyoga namoyon etishiga ishonch bildirildi. Shuningdek, bu yil sentyabr oyida Samarqand shahrida o‘tadigan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasida ham xalqimiz g‘alaba kutayotgani ta’kidlandi. Tadbirda mamlakatimizda shaxmatni keng ommalashtirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ushbu sport turini targ‘ib etish, navqiron avlod qalbida milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari, shuningdek, Kiprda o‘tkazilgan FIDE Nomzodlar turnirida rekord natijalar ko‘rsatib, muddatidan oldin g‘oliblikni qo‘lga kiritgani uchun Javohir Sindorov “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangani to‘g‘risidagi Prezident farmoni o‘qib eshittirildi.

Davlatimiz rahbari ushbu yuksak mukofotni tantanali ravishda topshirdi.

Grossmeysterimiz yoshlarga, sport rivojiga qaratilayotgan doimiy e’tibor va yaratilayotgan keng sharoitlar, ko‘rsatilgan yuksak ishonch hamda e’tirof uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Xulosa qilib aytganda, Javohir Sindorovning ushbu tarixiy g‘alabasi nafaqat shaxsiy yutuq, balki butun Yangi O‘zbekistonning intellektual salohiyati, qat’iyati va yuksalish ramzidir. Oldinda uni yanada ulkan marralar kutmoqda. Ana shu mas’uliyatli yo‘lda qahramonimizga mustahkam sog‘lik, bardavom muvaffaqiyat va, albatta, omad yor bo‘lishini tilaymiz — zero, uning har bir g‘alabasi xalqimiz faxri va iftixoridir.

Sarvinoz SHERALIYEVA,
bosh muharrir

Surat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-saytidan olindi.

“INNOPROM. Markaziy Osiyo”



BEKOBOD VA BOSHQIRDISTON:YANGI HAMKORLIK BOSQICHI

Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston bog‘i” hududida Big Central Asia Industrial Week – INNOPROM xalqaro sanoat ko‘rgazma-forumi bo‘lib o‘tdi.

An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan mazkur nufuzli tadbir joriy yilda ham dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan davlat vakillari, ishbilarmon doiralar, sanoat korxonalari rahbarlari hamda ekspertlarni yagona maydonga jamladi.

Forumda 35 ta davlatdan rasmiy delegatsiyalar va biznes vakillari ishtirok etdi. Ko‘rgazma doirasida 500 dan ortiq kompaniya va ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari, innovatsion yechimlari hamda istiqbolli loyihalarini namoyish etdilar.

Mazkur forum doirasida Bekobod tumani hokimligi hamda “Bashqirdiston investitsiya boshqaruv kompaniyasi” va “Bekobod investitsiya boshqaruv kompaniyasi” o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator bitimlar imzolandi.

Shuningdek, hamkorlikni kengaytirish maqsadida “Burintex”, “Ural prujina zavodi” hamda “Ortsotan” kabi yirik korxonalar bilan ham kelishuvlarga erishilib, texnologik aloqalarni rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi.

Mazkur bitim va kelishuvlar hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda sanoat salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Doniyor G‘ULOMJONOV,
Bekobod tumani hokimligi
bosh mutaxassisi

BEKOBOD YOSHLARI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Rahbar va yoshlar uchrashuvi



“O‘zmilliybank” AJ hamda Bekobod tumani hokimligi hamkorligida tumanning “Bog‘ishamol”, “Dalvarzin”, “Savrak” va “Qo‘rg‘on” mahallalarida istiqomat qiluvchi yoshlar uchun maxsus dastur asosida keng qamrovli tadbir tashkil etildi.

Tadbir doirasida yoshlar Toshkent shahriga tashrif buyurib, ularga ma’naviy-ma’rifiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan uchrashuvlar va ekskursiyalar uyushtirildi. Ishtirokchilar avvalo “Texnopark” majmuasida bo‘lib, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, innovatsion texnologiyalar asosida yaratilayotgan mahsulotlar hamda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari bilan yaqindan tanishdilar. Ahamiyatlisi, bir qator yigit-qizlar shu yerning o‘zidayoq ishga joylashish istagini bildirib, tegishli so‘rovnomalarni to‘ldirishdi.

Shuningdek, yoshlar uchun muhim manzillardan biri – O‘zbekiston Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi ham tashrif dasturiga kiritildi. Bu yerda ular mamlakatimizning boy ma’naviy merosi, buyuk allomalar hayoti va ilmiy faoliyati haqida batafsil ma’lumot oldilar. Markazda joriy etilgan zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellektga asoslangan interaktiv tizimlar, 3D modellar va multimedia taqdimotlari yoshlarning tarixni yanada chuqurroq va “jonli” his etishiga xizmat qildi.

Tadbirning asosiy qismi sifatida yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi. Unda “O‘zmilliybank” AJ rahbariyati ishtirok etib, yoshlarning muammo va takliflarini tingladi. Suhbat davomida ularni ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikka jalb etish, imtiyozli kreditlar ajratish hamda doimiy daromad manbalarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Shuningdek, “Kelajakka qadam” markazi tomonidan yoshlarning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirishga qaratilgan imkoniyatlar taqdim etildi.

Interaktiv muloqot jarayonida bir qator yoshlar o‘z biznes g‘oyalari va rejalarini o‘rtoqlashdilar. Ayrim ishtirokchilar esa bank ko‘magi bilan allaqachon tikuvchilik, payvandlash va boshqa yo‘nalishlarda daromadli faoliyatni yo‘lga qo‘yganliklari haqida o‘z tajribalarini bildirdilar.

Tadbir yakunida 11 nafar faol va tashabbuskor yoshlar rag‘batlantirilib, ularga daromadli biznesni boshlashlari uchun zarur asbob-uskunalar topshirildi.

Mazkur tashabbus yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash, tadbirkorlik salohiyatini oshirish hamda jamiyatdagi faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

“O‘zmilliybank” AJ kelgusida ham yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish va barqaror daromad manbalarini yaratishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirishini ma’lum qildi.

Akmal BOQIJONOV,
Bekobod tumani hokimi maslahatchisi





Diqqat



2026-yil 22-aprel kuni soat 16:00da Bekobod tuman hokimligi kichik majlislar zalida “Zafar bozor majmuasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining navbatdagi umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladi.

Umumiy yig‘ilish kun tartibi:
- jamiyat nomini o‘zgartirish;
- yer ijara shartnomasi tuzish;
- ustav fondini oshirish;
- jamiyat ishtirokchisi bo‘lish istagida bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning takliflarini ko‘rib chiqish;
- jamiyatning ustaviga hamda ta’sis shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- boshqa masalalar.

Shuhrat TOJIQULOV,
“Zafar bozor majmuasi”
MCHJ rahbari

Bugunimiz haqida

ISHONCHLI NATIJA

Bekobod tumani tibbiyot birlashmasida navbatdagi murakkab jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Umurtqa pog‘onasining yopiq jarohati bilan murojaat qilgan ikki nafar bemorda aniqlangan sinish holati malakali shifokorlar tomonidan jarrohlik yo‘li bilan bartaraf etildi.

Amaliyot tajribali mutaxassislar tomonidan zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan TPF tizimi yordamida amalga oshirilib, umurtqa pog‘onasi ishonchli tarzda fiksatsiya qilindi. Jarayon davomida barcha belgilangan tibbiy standartlarga qat’iy rioya etildi.

Mazkur muvaffaqiyatli operatsiya tuman shifokorlarining yuksak kasbiy mahorati, chuqur bilim va boy tajribasining yana bir yorqin ifodasidir.

YANGI BOSQICH

Bekobod tumanida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish borasida yangi bosqich boshlandi. Tumanda intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Yoshlik-2 hududida yer va iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish maqsadida 50 gektar maydonda uzumning “Mers”, “Rizamat”, “Kelin barmoq”, “Husayni” va “Toypi” navlarini ekish ishlari jadal sur’atlarda davom etmoqda.

Mazkur loyihada nafaqat hosildorlikni oshirish, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ham asosiy maqsad etib belgilangan. Shu bois, maydonlarda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ham ko‘zda tutilmoqda.

Ushbu tashabbuslar Bekobod tumanida agrar sohani yanada rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Akrom MAMADALIYEV tayyorladi.

DOLZARB MASALALAR SESSIYA MARKAZIDA

JARAYON



Bekobod tumanida Xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq 26-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur sessiya hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bir qator dolzarb masalalar keng muhokama qilindi.

Sessiya kun tartibidan o‘rin olgan asosiy yo‘nalishlar orasida tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, mahalliy byudjet ijrosi hamda qo‘shimcha daromad manbalarini aniqlash masalalari alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Shu bilan birga, jinoyatchilikning oldini olish, aholi osoyishtaligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilindi.

Yig‘ilish davomida soliq tushumlarini oshirish, mavjud qarzdorliklarni qisqartirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari yuzasidan ham tegishli mutasaddilarning hisobotlari tinglandi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarning ijrosi doirasida olib borilayotgan ishlar atroflicha ko‘rib chiqildi.

Sessiyada tuman hokimi, soha rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar vakillari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berib, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflarni ilgari surdilar.

Ta’kidlanganidek, mazkur sessiyada qabul qilingan qarorlar Bekobod tumanining ertangi taraqqiyoti, hududda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Qobil BOBOJONOV,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani Kengashi
deputati

DEPUTAT MINBARI

AMALIY YONDASHUV



Bugungi kunda mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ayniqsa, suv tanqisligi sharoitida uning har bir tomchisidan unumli foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo‘jaligida yuqori natijalarga erishish bevosita suv resurslarini to‘g‘ri boshqarish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, joylarda olib borilayotgan o‘rganishlar va amaliy tashabbuslar muhim o‘rin tutadi.

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati Azamat Jabborov navbatdagi sessiya kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan joylarda o‘rganish ishlarini olib bordi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida fermer xo‘jaliklarida bo‘lib, dehqonlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Suhbatlar davomida suvdan oqilona foydalanish, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘rganishlar yakunida bildirilgan taklif va muammolarni tegishli tartibda ko‘rib chiqish hamda ularning amaliy yechimlarini ishlab chiqish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

SOG‘LOM AVLOD — USTUVOR VAZIFA

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktablarda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e’tibor nafaqat o‘quvchilarning salomatligini mustahkamlash, balki ularning irodasi va intizomini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta’lim muassasalarida yaratilgan sharoitlarni o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati Jahongir Shaxmayev Qolg‘onsir mahallasidagi 33-umumta’lim maktabida bo‘ldi.



Tashrif davomida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun yaratilgan sharoitlar, sport inventarlari holati hamda ularning yetarliligi o‘rganildi. Shuningdek, o‘quvchilarning sportga qiziqishini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ishlar ko‘zdan kechirildi.

Aniqlangan masalalar yuzasidan mavjud sharoitlarni yanada yaxshilash takliflari bildirildi.

BIRLAMCHI XIZMATLAR TAHLILI

Aholiga sifatli va o‘z vaqtida tibbiy xizmat ko‘rsatish — bugungi islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati Nodira Do‘smatova Xos mahallasida joylashgan oilaviy shifokorlik punktida bo‘ldi.

O‘rganish jarayonida aholi uchun ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy xizmatlar sifati, tibbiyot xodimlarining faoliyati hamda bemorlar uchun yaratilgan sharoitlar atroflicha tahlil qilindi.

Shuningdek, tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqilib, mutasaddi tashkilotlarga zarur choralar ko‘rish bo‘yicha murojaatlar kiritish rejalashtirildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, joylarda olib borilayotgan bunday o‘rganishlar sohalardagi mavjud holatni chuqur tahlil qilish, muammolarni bevosita aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, bu jarayonlarda aholi bilan ochiq muloqotga kirishilib, ularning fikr va takliflari inobatga olinayotgani islohotlarning hayotiyligini ta’minlaydi. Shu tariqa, hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom etib, aholining turmush sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.



Sarvinoz SHERALIYEVA
tayyorladi.

Fuqaro muhofazasi

XAVFSIZLIK — UMUMIY MAS’ULIYAT



Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi — aholini turli xavf-xatarlardan himoya qilish, favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamiyatda xavfsizlik madaniyatini oshirishga qaratilgan muhim tashabbusdir. Mazkur oylik davlat organlari, ta’lim muassasalari va korxonalar hamkorligida keng ko‘lamda tashkil etilib, aholining barcha qatlamini qamrab oladi.

Favqulodda vaziyat — inson hayoti, sog‘lig‘i, atrof-muhit yoki moddiy boyliklarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan holatdir. Ular kelib chiqishiga ko‘ra tabiiy, texnogen va ekologik turlarga bo‘linadi. Zilzila, sel, suv toshqini, qurg‘oqchilik, kuchli shamol va bo‘ronlar tabiiy ofatlarga kiradi. Sanoat korxonalaridagi avariyalar, yong‘inlar, transport halokatlari, gaz sizib chiqishi yoki portlashlar texnogen xavflar hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, radiatsion yoki kimyoviy xavf esa ekologik favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Fuqaro muhofazasi — aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilishga qaratilgan muhim davlat tizimidir. U aholini ogohlantirish, qutqaruv ishlarini tashkil etish, jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, evakuatsiyani amalga oshirish hamda zararlangan hududlarni tiklash kabi vazifalarni bajaradi. Aynan shu tizim orqali favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlari kamaytiriladi.

Oylik davomida turli ma’rifiy va amaliy tadbirlar tashkil etilmoqda. Xususan, seminarlar, davra suhbatlari, ochiq darslar orqali aholining bilim darajasi oshiriladi. Amaliy mashg‘ulotlarda esa yong‘in vaqtida harakat qilish, evakuatsiya qilish, birinchi yordam ko‘rsatish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. Maxsus xizmatlar bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan o‘quv mashqlari favqulodda vaziyatlarni modellashtirish orqali real holatlarga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish hayotni saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zilzila vaqtida vahimaga tushmaslik, mustahkam joyga yashirinish va liftlardan foydalanmaslik zarur. Yong‘in sodir bo‘lganda tutundan saqlanish uchun pastdan harakatlanish, elektr jihozlarini o‘chirish va favqulodda chiqish yo‘llaridan foydalanish lozim. Suv toshqini paytida esa baland joyga chiqish, elektr qurilmalardan uzoq bo‘lish va rasmiy ogohlantirishlarga amal qilish muhimdir.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ham favqulodda holatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Nafas olmayotgan odamga sun’iy nafas berish, qon ketishda bosim qo‘yish, suyak sinishida jarohatlangan a’zoni harakatsizlantirish hamda kuygan joyni sovuq suv bilan yuvish kabi oddiy amallar inson hayotini saqlab qolishi mumkin.


Mazkur oylikning ahamiyati shundaki, u aholining bilim va ko‘nikmalarini oshiradi, favqulodda vaziyatlarda talafotlarni kamaytiradi, tashkilotlarda xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi hamda har bir insonda mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bu esa jamiyatda xavfsiz hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi — inson hayotini asrashga qaratilgan muhim tashabbusdir. Har bir fuqaro bu jarayonda faol ishtirok etib, zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashi lozim. Chunki xavfsizlik — bu nafaqat davlatning, balki har birimizning kundalik hayotimizdagi ustuvor vazifamizdir.

Mirg‘iyos MAHKAMBOYEV,
Bekobod tumani FVB FVPB
katta inspektori,
katta leytenant

Salomatlik va profilaktika

25-APREL — BUTUNJAHON BEZGAKKA QARSHI KURASH KUNI



Bezgak kasalligi dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlari aholisi orasida uchraydi. Kasallik asosan issiq iqlimli hududlar — Afrika, O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq va Lotin Amerikasi mamlakatlarida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda ayrim MDH davlatlarida, xususan O‘zbekistonda, bezgak kasalligi bartaraf etilib, uning mahalliy tarqalishining oldi olingan. Biroq tropik mamlakatlarda kasallanish holatlari hanuz yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu esa kasallikning boshqa hududlarga kirib kelish xavfini saqlab qoladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2007-yil may oyida o‘tkazilgan 60-sessiyasi qaroriga muvofiq, har yili 25-aprel sanasi “Butunjahon bezgakka qarshi kurash kuni” sifatida nishonlanadi. 2019-yildan boshlab esa bu sana “Bezgakni yo‘qotish mendan boshlanadi” shiori ostida o‘tkazib kelinmoqda.

Bezgak — yuqumli kasallik bo‘lib, u odamga tabiatda Anopheles turiga mansub chivin chaqishi orqali yuqadi. Kasallik qaltirash, isitmaning ko‘tarilishi, taloq va jigar kattalashishi hamda kamqonlik bilan namoyon bo‘ladi. Uni mikroskopda ko‘rinadigan mayda parazitlar — plazmodiylar qo‘zg‘atadi.

Bezgakni aynan bezgak chivinlari tarqatadi. Ularning lichinkalari turg‘un suv havzalarida — ko‘lmaklar, sekin oqadigan zovurlar va suv yig‘ilgan joylarda rivojlanadi. Chivinlar asosan kechqurun va tong saharda faol bo‘lib, insonlarga hujum qiladi. Shu sababli chivinlardan himoyalanish kasallikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Oldini olish choralariga yoz mavsumida deraza va eshiklarga to‘r o‘rnatish, pashshaxonada uxlash, tananing ochiq qismlariga chivinlarni qaytaruvchi maxsus vositalar — repellentlar surtish kiradi. Bezgak keng tarqalgan davlatlarga xizmat safari yoki sayohat bilan borishda ushbu qoidalarga amal qilish hamda oldindan poliklinikalarda shifokor maslahatini olish zarur.

Endemik hududlardan qaytgan shaxslar tibbiy ko‘rikdan o‘tib, qon tahlillarini topshirishlari lozim. Zarur hollarda ular dispanser nazoratiga olinadi

Bezgakka qarshi kurashish har bir insonning ogohligi va mas’uliyatiga ham bog‘liq. Kasallikning oldini olish — uni davolashdan ko‘ra oson va samaraliroqdir.

Temur UMAROV,
Bekobod tumani Sanepid
bo‘limi boshlig‘i

O‘zbekistonda obodonlashtirish



IQTISODIY BARQARORLIK VA YASHIL TARAQQIYOT OMILI

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari shunchaki estetik maqsadlarni ko‘zlamaydi. Ushbu yo‘nalish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi, turizm, ko‘chmas mulk bozori va energiya samaradorligini rag‘batlantiruvchi muhim strategik sohaga aylanmoqda.

Sohadagi islohotlar izchil va tizimli asosda olib borilmoqda. Xususan, 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-son qaror bilan bu boradagi faoliyat tartibga solinib, mahallalarda yangi boshqaruv tizimi — “Mahalla servis kompaniyalari” joriy etildi. Shuningdek, “Yashil makon” loyihasi doirasida har yili 200 million tup ko‘chat ekish rejalashtirilgani yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda.

Obodonlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir necha yo‘nalishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Avvalo, obod va tartibli hududlar turizm hamda investitsiya jozibadorligini oshiradi. Infratuzilmasi rivojlangan hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasidan olinadigan daromadlar 20–25 foizga yuqori bo‘lishi kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, ko‘chmas mulk qiymati ham ortadi. Yashil hududlar, xiyobonlar va bog‘larga yaqin joylashgan uy-joylar odatda 15–20 foizgacha qimmatroq baholanadi. Bu esa obodonlashtirishning nafaqat ijtimoiy, balki bevosita iqtisodiy foyda keltirayotganini ko‘rsatadi.

Ko‘kalamzorlashtirish ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Daraxtlar va yashil hududlar havo haroratini o‘rtacha 2–4 darajaga pasaytirib, energiya sarfini 10–15 foizga kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

So‘nggi yillarda mazkur sohaga katta hajmda investitsiyalar yo‘naltirildi. Jumladan, 374,9 milliard so‘m mablag‘ hisobiga 1 423 ta maxsus texnika xarid qilindi. Har bir mahallaga obodonlashtirish ishlari uchun oyiga 20 million so‘mdan mablag‘ ajratilayotgani tizimning barqaror ishlashini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, soha xodimlari ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanib, ularning farzandlari uchun 900 million so‘mlik kontrakt to‘lovlari qoplab berildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, obodonlashtirish — bu kelajak uchun yo‘naltirilgan investitsiyadir. U iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ravshanbek IBRAGIMOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
1-bosqich talabasi

Yuz o‘tmishdan bir sado

BEKOBODGA OBI-HAYOT OLIB KELGAN RUS QIZI

1888-yil 7-yanvar kuni Amudaryo bo‘yida, qadimiy Sho‘raxona shahri kichik qal’asi ya’ni Qoraqolpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l shahrida Aleksandr Nikolayevich va Yelizaveta Grigoruyevna Kolpakovlar oilasida Tatyana ismli qiz farzand dunyoga keladi. Tatyananing otasi Aleksandr Nikolayevich Kolpakov harbiy shifokor bo‘lib ishlagan.



Tatyana Kolpakovaning yoshligi Amudaryo sohillarining dashtida, ya’ni bahorda chiroyli o‘sayotgan o‘simliklar dunyosi, yozda esa gullarga burkangan dashtning jazirama issiq tufayli barcha o‘simliklari qurib qoladigan vohada o‘tdi. Ko‘pincha Amudaryoning to‘lib-toshib oqishi tufayli dehqonlarning ekinlarini suv bosib, katta zarar ko‘rsatar edi. Lekin daryoning narigi tomonidagi dasht dalalariga suv yetib bormay u tomonning ekinlari qurib qolar edi.

Tatyana katta bo‘lgan sari daryoni o‘zlashtirish va uning suvlaridan dalalarni sug‘orishda foydalanish haqida o‘ylay boshladi. Buning uchun to‘g‘on qurish kerak derdi u. Ammo muhandis bo‘lish uchun, albatta, uzoq vaqt o‘qish kerakligini ham yaxshi bilar edi.

Shu orada ularning oilasi Toshkentga ko‘chib keladi. Tatyana Toshkentda gimnaziyada tahsil oladi. 1907-yilda esa Sank-Peterburgda birinchi oliy politexnika ayollar kursiga o‘qishga kiradi. Keyinchalik ushbu dargoh politexnika institutiga aylantirildi.

Tatyana Aleksandrovna talabalik davrida Turkmanistonning Murg‘ob irrigatsiya tizimida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tagan hamda diplom ishini shu yerda davom ettirgan. U Politexnika institutining yetakchi irrigator-muhandis olimlaridan ta’lim olgan.

Biroq 1917-yildagi inqilob tufayli Peterburgda notinchlik, vayronagarchilik va ochlik yuzaga kelgan. Shu bilan birga, Tatyana Toshkentda yashovchi otasining og‘ir kasal bo‘lib qolganini eshitib, uyga qaytishga majbur bo‘lgan. Toshkentga yetib kelishi bilan Tatyana Kolpakovaga Moskvadan telegramma kelib tushgan.

1918-yil may oyida Xalq Komissarlari Kengashining dekreti e’lon qilingach, Mirzacho‘l va Dalvarzin cho‘llarini o‘zlashtirish uchun 50 million so‘m mablag‘ ajratilgan. 1923-yilda Dalvarzinda “Stepstroy” nomli tashkilot tuzilib, mazkur loyiha Butunittifoq zarbdor qurilishi deb e’lon qilingan. Ushbu qurilishga Tatyana Aleksandrovna Kolpakova rahbar etib tayinlangan.

Kolpakova zudlik bilan Moskvaga borib, cho‘lni o‘zlashtirishga oid irrigatsiya-muhandislik hujjatlarini qabul qilib olgan va bir guruh tuproqshunoslar, irrigator-loyihachilar hamda shifokorlar bilan poyezdda Bekobodga yetib kelgan.

O‘sha paytda qishloqlarda ochlik va bezgak kasalligi avj olgan edi. Shu sababli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida lagerlar qishloqlardan ancha uzoqda joylashtirilgan. Biroq Kolpakovaning xodimlari orasida ham bezgak kasalligiga chalinganlar bo‘lgan, ayrim mutaxassislar vafot etib, Dalvarzin cho‘llariga dafn etilgan. Albatta, o‘sha davrda ayol kishining erkaklarga rahbarlik qilishi oson bo‘lmagan. Shu bois u bir necha ayol mutaxassislarni ham ishga jalb etgan.

Kolpakova bilan birga ishlagan hatto erkaklar ham uning chidamliligi, bardoshliligi, har qanday qiyinchilikni matonat bilan yengib o‘tishini ko‘rib, sabr-toqatiga qoyil qolganlar. O‘sha paytlarda transport vositalari juda kam bo‘lgani sababli ular ko‘pincha otlarda yoki ot aravalarda yurishga majbur bo‘lgan.

Bu ayol o‘z xodimlarining hayoti uchun mas’uliyatni zimmasiga olgan holda faoliyat yuritgan. Qidiruv ishlari bir tomondan bezgak kasalligiga qarshi kurashish bilan birga, og‘ir iqlim sharoitida — Bekobodning jazirama issig‘i va kuchli shamollariga qarshi olib borilgan. Ayniqsa, o‘sha davrda bosmachilarga qarshi kurash sharoitida hushyorlikni saqlab ishlashga to‘g‘ri kelgan. Shunga qaramay, ekspeditsiya xodimlari ochiq cho‘l-dasht hududlarida chodirlar tikib, og‘ir sharoitlarda yashab faoliyat olib borganlar.

Kolpakovaning tashkilotchilik qobiliyati va mukammal nazariy tayyorgarligi tufayli u eng yangi texnikalarni joriy etib, qurilish ishlarini mexanizatsiyalashga muvaffaq bo‘lgan. U “Dalvarzinstroy”da ishchi kuchidan oqilona foydalangan holda to‘rtta ekskavatorni ishlatgan. Ulardan ikkitasi Amerikadan bevosita Kolpakovaning sa’y-harakatlari bilan olib kelingan edi.

O‘sha og‘ir yillarda Kolpakova avval Toshkentga, keyin Moskvaga, so‘ngra Amerikaga borib, ikki dona “Byusayres” ekskavatorini Novorossiysk va Batumi portlari orqali olib o‘tib, poyezdda Bekobodga yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Biroq ushbu og‘ir texnikalarni Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘iga o‘tkazish oson kechmagan. O‘sha davrda daryo ustidan o‘tuvchi temir-beton ko‘prik mavjud bo‘lmagan, eski parom ko‘prigi esa ekskavatorlar og‘irligini ko‘tara olmagan. Shunga qaramay, mutaxassislar birinchi ekskavatorni parom orqali o‘tkazishga muvaffaq bo‘lganlar.

Ammo ikkinchi ekskavatorni olib o‘tayotganda, daryoning o‘rtasida parom og‘ib ketib, qimmatbaho texnika Sirdaryoga cho‘kib ketgan. Tatyana Aleksandrovna sarosimaga tushmagan, aksincha, tezda g‘avvoslarni jalb etib, ekskavatorni suvdan chiqarib, ta’mirlash va qayta ishga tushirishga erishgan.

Tarixga nazar tashlasak, 1917-yilgi Oktyabr inqilobigacha ham Dalvarzin cho‘llarida qisman sug‘orish ishlari olib borilib, dehqonchilik qilingan. Jumladan, 1872-yilda Bekobod yaqinida 13 km uzunlikdagi Kaufman arig‘i qazilgan, keyinchalik yana 6 kmga kengaytirilgan. 1891-yilda Sirdaryoda toshdan to‘g‘on qurilib, 27 km uzunlikdagi ariqlarga suv berilgan. Biroq bu to‘g‘on uzoq vaqt xizmat qilmagan. Keyinchalik Kenas ariq (Knyazariq) qazilib, aholi undan keng foydalangan.

1881–1895-yillarda Farhod tog‘i yon bag‘rida yana bir to‘g‘on qurilgan, Kirov kanali qazilib, Mirzacho‘lga suv yetkazilgan. 1917-yilda Sirdaryoning chap sohilida Xilkivo stansiyasi, Bekobod, Saryuz, Qo‘qoni, Qo‘shtamg‘ali, Turkman, Uyas, Achamayli, Nikolskiy qishloqlari Bekobod volosti tarkibida bo‘lgan. O‘ng sohilda esa Dalvarzin vohasidagi Xos, Taqachi, Stretenko, Kal, Kereyt, Tentak, Qushchi, Parchayuz, Beshyuz, Saryuz, Qoraqo‘yli, Uyas va Qolg‘onsir qishloqlari Dalvarzin volostini tashkil etib, Xo‘jand uyezdiga qaragan.

Bundan tashqari, Qurama tog‘lari etagidagi Yantoq, Ayri, Oqtosh, Qatorbuloq, Xilvabuloq, Uchbog‘ va boshqa qishloqlar ham Dalvarzin volosti tarkibiga kirgan. O‘sha davrda suv taqsimotini ellikboshilar va miroblar boshqargan. 1917-yillar boshida Bekobod volostida taxminan 5 ming, Dalvarzinda esa 15 mingga yaqin aholi yashagan. Ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan.

Dalvarzin volostida taxminan 5 ming gektar, Bekobod volostida esa 1,5 ming gektar sug‘oriladigan yer mavjud bo‘lgan bo‘lib, bu yerlar asosan boylar ixtiyorida bo‘lgan. Sug‘orish ishlari Buloqariq, Oyimariq va To‘qqizariq orqali amalga oshirilgan. Buloqariq bundan 200–300 yil avval, Oyimariq esa taxminan 150 yil avval qazilgan. To‘qqizariq esa bundan 800–900 yil ilgari barpo etilib, to‘qqizta qishloqni suv bilan ta’minlagan. Biroq u Bekobod hududini to‘liq suv bilan ta’minlay olmagan.

Shu sababli Bekobod aholisi hayotida 1944-yilda qurilgan Farhod to‘g‘oni va undan boshlangan Dalvarzin kanali muhim ahamiyat kasb etgan. Kanalning boshlanish qismi hozirgi Farhod to‘g‘onining chap sohilidan taxminan 10 km uzoqlikdagi Oqtosh qishlog‘i yaqinidan boshlangan.

1930-yilda Kolpakova loyihasi asosida Dalvarzin kanali ishga tushirilgach, To‘qqizariq o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va kanalning o‘ng hamda chap irmoqlari orqali ko‘plab hududlar suv bilan ta’minlangan. O‘ng irmoq orqali Dehqonobod (sobiq Lenin kolxozi), Dalvarzin, Avangard, Oybek va boshqa xo‘jaliklar suv olgan bo‘lsa, chap irmoq Dehqonobodning bir qismi, Mavlonov va Avangard xo‘jaliklariga xizmat qilgan. Shuningdek, boshqa kanallar orqali Xos, Taqachi, hozirgi O‘zbekiston (sobiq Derjinskiy), Ulug‘bek, Navoiy va G‘alaba xo‘jaliklari ham suv bilan ta’minlangan.

Umuman olganda, Kolpakova jamoasining fidokorona mehnati tufayli Dalvarzin hududida minglab gektar yerlar sug‘orilib, ko‘plab qishloqlarga hayotbaxsh suv yetib borgan. Keyinchalik, 1960–1970-yillarda bu kanallar beton qoplamalar bilan mustahkamlangan.

Kolpakovaning xizmatlari e’tirof etilib, u bir yilga ilmiy safar bilan Amerikaga yuborilgan. Keyinchalik u O‘rta Osiyodagi SANIIRI institutida ishlab, Vaxsh va To‘palang irrigatsiya tizimlarini loyihalashda faol ishtirok etgan. 1933-yilda SAGUda “Suv energiyasidan foydalanish va nasos qurilmalari” kafedrasida ishlagan va dotsent ilmiy unvonini olgan. So‘ngra irrigatsiya institutida kafedra mudiri bo‘lib faoliyat yuritgan, ko‘plab diplom va dissertatsiya ishlariga rahbarlik qilib, yetuk mutaxassislar yetishtirgan.

Uning ilmiy ishlari ko‘plab gazeta va jurnallarda chop etilgan. 1977-yilda nafaqaga chiqqan bo‘lsa-da, ilmiy faoliyatini davom ettirib, yosh avlodga bilim bergan. Uning shogirdlari orasidan ko‘plab olimlar, dotsent va professorlar yetishib chiqqan.

1968-yilda “Правда Востока” gazetasida chop etilgan maqolada Dalvarzin cho‘lini o‘zlashtirish ishlari “Tatyana Aleksandrovna Kolpakovaning jasorati” sifatida e’tirof etilgan.

Tatyana Aleksandrovna 1980-yilda, 90 yoshdan oshgan chog‘ida vafot etgan. Uning mehnatlari hukumat tomonidan yuqori baholanib, Lenin ordeni, SSSR medallari, O‘zSSR Oliy Kengashi Prezidiumining faxriy yorliqlari hamda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigator” unvoni bilan taqdirlangan.

Bekobodda uning nomini abadiylashtirish maqsadida Kolpakova nomidagi kolxoz tashkil etilgan, biroq keyinchalik turli sabablarga ko‘ra bu nom o‘zgartirilib, “Navbahor” deb atalgan.

Mening fikrimcha, agar mas’ul tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, Dalvarzin kanaliga Kolpakova nomini berish tarixiy adolatni tiklash bo‘lar edi.

Xo‘jaahmad BOBOMURODOV,
Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi,
mehnat faxriysi

Ijod maktabi

BADIIYAT SARI YO‘L

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bugungi kunda mamlakatimizning 9 ta hududida atoqli shoir va yozuvchilar nomidagi ijod maktablari faoliyat yuritmoqda.

Xususan, Xorazmda Muhammad Rizo Ogahiy, Namanganda Isoqxon Ibrat, Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy, Jizzaxda Hamid Olimjon va Zulfiya, Farg‘onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Sirdaryoda Halima Xudoyberdiyeva, Qoraqalpog‘istonda Ibrohim Yusupov hamda Andijonda Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablari mavjud. Mazkur ta’lim muassasalarida iste’dodli yoshlar saboq olib, o‘z mahoratini oshirib bormoqda.

Ijod maktablari, o‘z nomiga monand tarzda, haqiqiy ijod maskanlaridir. Bu dargohlarda O‘zbekiston xalq shoirlari, xalq yozuvchilari, yuksak unvonlarga sazovor adiblar hamda madaniyat sohasining yetuk vakillari ishtirokida mahorat darslari tashkil etiladi. “Ustoz-shogird” an’analari asosida ta’lim va tarbiya sifati oshiriladi. Qisqasi, ijod maktablarida hayot qaynaydi, ilhom va iste’dod uyg‘unlashadi.

Biz esa ushbu muassasalarda tahsil olayotgan yosh qalamkashlar ijodini gazetxonlarimizga havola etishni maqsad qildik. Quyida poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi tarbiyalanuvchilarining ijodiy ishlari bilan tanishasiz.

TAHRIRIYAT



Oydinoy HIKMATULLAYEVA,
7-sinf o‘quvchisi

KITOBDAN BOLAGA SHE’R

Sen meni o‘qiding, o‘qiding ancha,
So‘ngra yirtib tashlab qaroqlarimdan.
Menga rahmat aytmay bunda hech qancha,
Ko‘plab bilim olding varoqlarimdan.

Yirtasan, chizasan, indamayman men,
Hatto uloqtirsang bir so‘z demasman.
Axir men kitobman, xayollarimda,
Senga sodiq do‘stman, dushman emasman!



E’zoza OYBEKOVA,
7-sinf o‘quvchisi

SOG‘INCH

Yuragimga bahor faslida
Gul qadadim, bari-barini –
Sog‘inaman ba’zi-ba’zida,
Qishlog‘imning ko‘chalarini.

Ko‘ngil asli Xudoning mulki,
Sog‘inchlarga to‘lmoqda xonam.
Qishlog‘imni sog‘indim chunki,
Unda yashar otam va onam!



Jasmina BATIRBAYEVA,
7-sinf o‘quvchisi

BOLALIK

Men ham qachonlardir katta bo‘larman,
Bu dunyoning ham asl yuzin ko‘rarman.

Vaqt bunda o‘tishga bo‘lar andarmon,
Bolalik bo‘ladi afsuski armon.

Bolalik, ketyapsan meni tashlab, oh,
Seni eslaganday meni esla goh.

Men seni unutmay yashayman har on,
Sen mening qalbimda yashaysan hamon.



Nihola MARDONOVA,
7-sinf o‘quvchisi

DAFTAR VA KITOB

Bolakay bir daftarni,
Qo‘ydi kitob yoniga.
So‘ng kitob tilga kirdi,
Jon qo‘shilib joniga.

– Hey daftarjon ne uchun,
Buklangandir varog‘ing.
Tag‘in usting yirtilgan,
Hech yo‘qdir ishtiyog‘ing!

Daftar dedi bir bola,
Menga chizar har kuni.
Qilsam ham tinmay nola,
To‘xtatib bo‘lmas uni.

Kitob dedi ertaga,
Ja, qo‘ymaymiz musht urib.
Ustoz bilan qo‘yamiz,
Boshiga bir tushurib!



Zuhra BAHRONOVA,
7-sinf o‘quvchisi

ILHOM KELAR BAHOR KELGANDA

She’r yozardim ilhom kelganda,
Ilhom – shamol, yelmayapti-ku!
Ilhom kelar bahor kelganda,
Lek bahor ham kelmayapti-ku.

O‘sha shamol aniq yeladi,
Yo chiqib qolaman yo‘lidan.
Balki bahor kirib keladi,
Yetaklab ilhomning qo‘lidan.



Dilnoza NORTJIYEVA,
10-sinf o‘quvchisi

Soydagi teraklar shivirlab qoldi,
Pinhona ketolmay qoldim bu gal ham.
Lek bu tebranishlar xayrlashuvmi?
Isyonmikan?
Yoki qalbimga hamdam.

Nigohim oynaga qadalgan,
Ko‘rinmaydi tunda turgan manzilim.
Turmushum,
Begona shaharda ertangi kunim.

Olis yo‘l.
Qayg‘u va baxt qorishgan shahar,
Uyidan yiroqqa chiqmagan qizcha,
Tushsimon hayotni kutar menimcha...



Nurislom XURRAMOV,
10-sinf o‘quvchisi

MENDIRMAN

Yordin ayro bir gulning –
Qabristonni mendirman.
Dilimda u, qalbining –
Shahristoni mendirman.

Hajrida o‘tar yillar,
Dilim unga baxt tilar,
Jabriga sabr qilar –
Sabristoni mendirman.

Goh do‘st, goho g‘animdir,
Kuygan et-u tanimdir,
Qahrim unutganimdir –
Qahristoni mendirman.

Hijronga qo‘ygancha chek,
Qurg‘ur yurak turmas tek,
Ul gul meniki, valek –
Nurislomi mendirman...

SEHRLI SABOQ

SEVGI ERTAKLARI QAYERGA KETDI?

ROMANTIKANING YANGI QIYOFASI

“Bu faqat bolalar uchun emas, balki har birimizning ichimizdagi bola uchun. Farqi yo‘q, olti yoshdamizmi yoki oltmish.” Mazkur so‘zlarni Uolt Disney o‘z animatsion tasvirlarini dunyoga taqdim etganida aytgan edi. Haqiqatan ham shunday. Bolaligimizning eng yorqin xotiralari orasida, albatta, kamida bitta Disney ertagi bor. O‘sha ertakni birinchi ko‘rganimizda yuragimiz hayajonlangan, hayot va sevgi haqidagi tasavvurlarimiz shakllangan edi.



Sehrli o‘pich bilan uyg‘ongan Uyqudagi Malika, dengizdagi hayotini tark etib inson sevgisi uchun ovozini qurbon qilgan Ariel (Suv parisi), qahrli maxluq qo‘lini ushlagan Bel... Bular bizning yoshligimizning qahramonlari edi. Ammo bugun Disney filmlarini tomosha qilar ekansiz, g‘alati bir tuyg‘u paydo bo‘ladi – “Shu yerda nimadur yetishmayapti...”

So‘nggi o‘n besh yillikda Disney studiyasi ajoyib o‘zgarishni boshdan kechirdi. “Ular uzoq va baxtli hayot kechirdilar” yoki “birinchi ko‘rishda sevib qolish” kabi an’ana asta-sekin yo‘qolib, o‘rniga yangi tushunchalar paydo bo‘ldi: shaxsiy kuch, oilaviy rishtalar, do‘stlik va o‘zligini anglash.

Bu o‘zgarishlar ortida nimalar turibdi? Nima uchun Disney o‘zining eng mashhur formulasidan voz kechdi?

ROMANTIKA: KECHA VA BUGUN. O‘TMISHDA QOLGAN SEHR



Disney filmlarining oltin davri bir sehrli formulaga asoslangan edi: go‘zal yosh qiz, unga oshiq bo‘lgan bahodir shahzoda va ularni ajratuvchi to‘siq. Bu chiroyli, oddiy va ishonchli formula turli avlodlarning yuragini zabt etdi.

“Sindrella”ni eslang: kambag‘al, qiynaladigan qiz shahzoda bilan raqsga tushadi, so‘ngra oyoq kiyimini tushirib qo‘yadi. Shahzoda butun qirollikni kezib, uni izlaydi. Nima uchun? Chunki ularning taqdiri birlashishi kerak. Yoki “Oppog‘oy”ni olaylik: unda zaharli olmadan o‘lib qolgan qizni faqat “haqiqiy sevgi o‘pichi” qutqaradi. Bu filmlarning asosiy g‘oyasi shunday edi: “Haqiqiy sevgi har qanday to‘siqni yengadi”.

Bu ertaklarda qizlar faol emas, ular passiv. Ularning baxtli hayoti shahzodaga bog‘liq. Sevgi esa oldindan belgilangan, taqdir tomonidan yozilgan, birinchi ko‘rishdayoq yuzaga keladigan mo‘jiza sifatida tasvirlanadi.



BUGUNNING YANGICHA QAHRAMONLARI

Yangi Disney qizlari bizning zamonamiz qizlari kabi: mustaqil, kuchli, o‘z taqdirini o‘zlari belgilashni istaydigan. 2010-yillardan boshlab Disney filmlarida jiddiy o‘zgarish yuz berdi. Romantik sevgi hikoyalari ikkinchi planga tushib, boshqa mavzular ko‘tarildi:

“Muz Yurak” (Frozen - 2013) – Disney an’anaviy sevgi hikoyasini butkul o‘zgartirdi. Anna dastlab shahzoda Hansni birinchi ko‘rishdayoq sevib qoladi, ammo bu sevgi uning halokatiga sabab bo‘ladi. Film bu holatni tasvirlash orqali an’anaviy ertaklarni parodiya qiladi. Hans xoinona kulib: “Seni kimdir chin dildan sevganida edi....” deydi. Ammo asl “haqiqiy sevgi” Anna va Elsa o‘rtasidagi opa-singillik rishtasi bo‘lib chiqadi. “Muz Yurak” “birinchi ko‘rishda sevgi” konsepsiyasini rad etadi.

“Moana”da (2016) romantik syujet umuman yo‘q. Moana o‘z qishlog‘ini qutqarish va o‘zligini anglash uchun sayohatga chiqadi. Uning hech qanday romantik sherigi yo‘q. Maui bilan munosabati esa ustoz-shogird yoki do‘stlik munosabatidir, romantik emas. Film qahramonning o‘z kuchini topishi va qabiladoshlarini qutqarishi haqida hikoya qiladi.

“Enkanto” (2021) – bu oilaviy hikoyada romantik sevgi deyarli uchramaydi. Mirabel oilasidagi har bir a’zoning muammolari va qobiliyatlarini o‘rganib, ularni yaqinlashtiradi. Film oila birligini tiklash, o‘zaro tushunish va har bir insonning o‘ziga xosligini qabul qilish haqida.

NEGA BIZ “MENING OQ OTDAGI SHAHZODAM” IBORASINI ESHITMAY QO‘YDIK?

Shunday qilib, ushbu formula yetarli muvaffaqiyat keltirgan bo‘lsa-da, Disney nega romantik sevgidan voz kechdi? Bu evolyutsiyaning to‘rt muhim sababi bor. Jumladan, jamiyatimiz ko‘zgusi: bolaligimiz ertaklaridagi romantika 1930–1950-yillardagi g‘arb jamiyatiga mos edi. O‘sha davrda ayollarning asosiy roli oila qurish, turmushga chiqish va ona bo‘lish bo‘lgan. Bugun esa dunyo o‘zgardi. Ayollar mustaqil, o‘z maqsadlariga erishishga intilmoqda. Endi “malika shahzodasi bilan baxtli yashadi” yetarli emas. Zamonaviy qizlar uchun baxt faqat sevgi bilan cheklanmaydi.

Global dunyo, turfa qadriyatlar: disney endi faqat Amerika uchun emas, balki butun dunyo uchun hikoya qiladi. Turli madaniyatlarda sevgi va romantikaga bo‘lgan qarashlar farq qiladi. Masalan, ba’zi jamiyatlarda “birinchi ko‘rishda sevgi” tushunchasi umuman mavjud emas. Shuning uchun Disney oila, do‘stlik, o‘zini anglash va shaxsiy o‘sish kabi universal qadriyatlarni oldinga surmoqda.

Hamma uchun, faqat qizlar uchun emas: eski Disney filmlari asosan qizlar auditoriyasiga mo‘ljallangan edi. Ammo endi studiya bolalarni umumiy qamramoqda. Tajribalar ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar romantik syujetlarga kamroq qiziqadi, lekin sarguzasht, do‘stlik va qahramonlik hikoyalari hamma uchun jozibali bo‘lishi mumkin.

Yangi avlod, yangi qadriyatlar: bugungi bolalar uchun “doim qutqaruvchi shahzoda” g‘oyasi zamonaviy emas. Ular ekranda “Men o‘zimni o‘zim qutqara olaman”, “Men kuchli va mustaqilman” degan fikrlarni ko‘rishni xohlashadi.

Shunday qilib, Disney mahsulotlari bolalarning yangi dunyoqarashini shakllantirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, ko‘plab psixologlar faqat romantik sevgiga asoslangan filmlar bolalarda munosabatlar haqida noto‘g‘ri tasavvur shakllantirishini ta’kidlashadi.



ROMANTIKA O‘LDIMI YOKI O‘ZGARDIMI?

Disney romantik sevgidan butunlay voz kechdimi? Yo‘q, faqat uni kengaytirdi, qayta shakllantirdi, murakkabroq va rangbarang ko‘rinishda taqdim etdi.

SEVGINING YANGI QIYOFALARI

Bugungi Disney sevgining ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, oilaga muhabbat – “Enkanto”da Mirabel o‘z oilasini tushunishga va birlashtirishga harakat qiladi. “Koko”da esa Migel bobo-buvilarining sevgisi bilan bog‘lanadi va bu bog‘lanish uning hayotini o‘zgartiradi. Film oilaviy rishtalarning kuchini, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ahamiyatini ochib beradi.

Do‘stlik sevgisi – “Luka”da ikki bola o‘rtasidagi do‘stlik sevgisi markaziy o‘rinda turadi. Ular bir-biriga yordam beradi, qo‘llab-quvvatlaydi, va oxir-oqibat bir-birining haqiqiy do‘sti bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, “Qalb” (Soul)da Jo va 22 bir-birini tushunib, bir-biriga ko‘maklashadi. Ular o‘rtasidagi do‘stlik hayotning ma’nosini anglashga yordam beradi.

O‘zini sevish – “Moana”da qiz o‘z yo‘lini topadi, Ummon bilan birlashadi va o‘z qobiliyatlariga ishonadi. “Muz Yurak”da esa Elsa o‘z kuchini his qilishni o‘rganadi va o‘zini qanday bo‘lsa shunday qabul qilgandan so‘ng, u boshqalarga ham haqiqiy sevgini ko‘rsata oladi.

Romantik sevgi yo‘qolmagan, lekin u endilikda sevgining yagona shakli emas. Bu xuddi jamiyatdagidek, bizning hayotimizda ham har xil sevgi bor va ularning har biri o‘z o‘rniga ega.

ROMANTIKANING YANGI MODELI

Agar Disney yana romantik sevgi hikoyalariga qaytsa, ular ancha boshqacha ko‘rinishda bo‘ladi: qizlar va o‘g‘illar teng huquqli sheriklar sifatida tasvirlanadi; sevgi faqat tashqi go‘zallikka emas, balki shaxsiy fazilatlar va o‘zaro tushunishga asoslanadi; birinchi ko‘rishdagi sevgi emas, balki vaqt o‘tishi bilan rivojlanadigan hissiyotlar ko‘rsatiladi; qahramonlar avval o‘zini topish, keyin sevgini izlash tamoyiliga amal qiladi.

“Muz Yurak”dagi Anna va Kristof munosabatlari bunga misol. Ular darhol bir-biriga oshiq bo‘lmaydilar. Avval birgalikda sarguzashtlarni boshdan kechiradilar, do‘st bo‘ladilar, bir-birini taniydlar va keyin sekin-asta sevgi paydo bo‘ladi.

DISNEY SEVGI ERTAKLARI EVOLYUTSIYASI

Disney sevgi ertaklaridan voz kechmadi, balki ularni yangi avlod uchun moslashtirdi. Bu o‘zgarish dunyoqarashimizning, qadriyatlarimizning o‘zgarishini aks ettiradi. Bolaligimizda eshitgan “Mening shahzodam kelar bir kun” qo‘shig‘i o‘rniga (Oppog‘oydan), bugungi kunda “O‘z hayotimni o‘zim yaratarman” degan yangi qo‘shiq yangrayapti (Muz Yurakdan).

Disney sevgi ertaklari yo‘qolmadi – ular bizning o‘zimiz kabi rivojlanmoqda. Bolaligimizda shahzodalar qizlarni qutqarar edi, bugun esa qahramonlar avval o‘zini qutqaradi, o‘z kuchini his qiladi va keyin to‘laqonli sevgiga tayyor bo‘ladi.

Bu yangi ertaklar bolalarimizga nimani o‘rgatadi? Balki hayotimizdagi eng katta sarguzasht – o‘zimizni anglash va sevishni o‘rganishdir. Ehtimol, bu barcha ertaklarning eng sehrli sabog‘idir.

Bu yangi saboq bolaligimizning sehrli ertaklaridan ham ko‘ra chuqurroq, hayotimizdagi haqiqiy sevgiga yaqinroq bo‘lishi mumkin. Balki, aynan shu sababli Disney o‘z tarixida yangi sahifani ochmoqda.

Samandar ERKINJONOV
Manba: Oyna.uz

MUTOLAA ZAVQI

ENTONI BERJESS – “MURVATLI APELSIN”



Yovuzlik bu tabiat hodisasi. Uni har doim ham bilim yoki madaniyat bilan jilovlab bo‘lmaydi. Roman insonning ichki tabiati, erkinligi va tanlov huquqi haqida yozilgan. Ammo…

Ammo kimgadir tanlov imkoniyati berilganida yozuvlikni tanlashini erkinlik deyish mumkinmi? Muallif insonga tanlov imkoniyati berilganda yomonlikni tanlay olmaydigan qilib “operatsiya” qilinsa jamiyat yaxshilanadimi degan savolni asarning poydevori qilib oladi.

Buni u zo‘ravonlikdan, qondan, og‘riqdan ingragan odamlardan zavq oladigan o‘smir yoshdagi Aleks hayoti bilan ochib beradi. Navbatdagi zo‘ravonlik paytida Aleks qo‘lga tushadi. Davlat uni shunchaki qamab qo‘ymasdan yangicha usulda “tuzatish”ga qaror qiladi.

Turli tibbiy va psixologik amaliyotlar yordamida uning ongini tahrirlashadi. Natijada u zo‘ravonlik qila olmaydigan, hatto shunday fikrni shunchaki o‘ylaganida ham azob chekadigan, ko‘ngli aynib chidab bo‘lmas og‘riq his etadigan holatga tushadi.

Jinoyatchini o‘n yillab qamoqda saqlash bosh og‘rig‘i va xarajatlaridan ham qutilishadi. Yana qamoqdan chiqqach qayta jinoyat qilmasligiga kafolat bo‘lmagan jinoyatchining ongidan bunday buzg‘unchilik butkul sug‘urib tashlandi. Miyasi zo‘ravonlikdan axta qilinadi go‘yo. Jamiyat uchun ham xavf yo‘qoladi. Jinoyatchi “yaxshi odam”ga aylantirildi. Tashqaridan qaraganda ajoyib yechim. Shunday emasmi?

Lekin Byorjess asarni o‘qib borarkansiz siz umuman kutmagan xulosalarga ro‘baro qiladi. Rostdan ham yomonlikni tanlay olmasa yaxshi odamga, yaxshi insonga aylanadimi? Yoki shunchaki mexanik mavjudot hosil bo‘ladimi?

Muallif men hozir sizga aytmaydigan voqealar rivoji bilan yuqoridagi savollar javobiga va uning fojialariga yetaklab boradi. Yuzasi tabiiy bo‘lgan apelsinning ichi mexanikadan, murvatlardan iborat deydi yozuvchi Aleksning ustida o‘tkazilgan tajribaga ishora qilib. Romanning nomi nega “Murvatli apelsin” ekanini ham men ana shu nuqtada tushundim.

Hukumat uni shunday usullar bilan “yaxshi odam”ga aylantiradi. Lekin bu haqiqiy yaxshilik emas, bu refleks xolos. Aleks endi tanlash imkoniyatidan mahrum bo‘lgan “murvatli o‘yinchoq”qa aylanadi. Agar insonning tanlovi bo‘lmasa, uning yaxshiligi ham hech qanday qiymatga ega emas deydi muallif. Chunki tanlov bor joydagina shaxs mavjud bo‘ladi.

Romanning yana bir yoqqan jihati yozuvchi tomonida o‘smirlar uchun maxsus jargon o‘ylab topgani bo‘ldi. Ya’ni “Nadsat” tili orqali zo‘ravon o‘smirlarning xarakteri yanada realistik ko‘rinadi. Bu yasama jaragonning o‘zbekchaga tarjimasida ham shu ruh saqlab qolingan. Tarjimonga tasanno!

Bu jargon o‘quvchini boshida biroz qiynaydi, lekin bir-necha bet o‘qiganingizdan keyin sizni Aleksning dunyosiga butunlay g‘arq qilib yuboradi. Ishonmaysizmi? Ishonmasangiz o‘qib ko‘ring…

ONORE DE BALZAK – “YEVGENIYA GRANDE”



Bu romanni oddiy sevgi hikoyasi deyish qiyin. U inson qalbi va jamiyat o‘rtasidagi murakkab kurashning barcha og‘riqlarini, xonavayronliklarini o‘zida jamlab ko‘rsatadi. Urushdan keyingi jang maydonini ko‘rgandek bo‘lasiz asar yakunida. Faqat bunda qurbon bo‘lgan, jarohat olgan tanalar emas, qalblar…

Balzak bu roman orqali asosi pulga qurilgan jamiyatning asl yuzini ochib beradi. Asarning bosh qahramonlaridan birini pul desak ham bo‘ladi. Chunki pul orqali odamlarning eng nozik nuqtasi — nafs va ochko‘zlikning qanchalik had-hududsiz bo‘lishi ko‘rsatiladi.

Grande ota obrazi bunga eng yorqin misol. U juda katta boylikka ega bo‘lsa-da, hayoti qashshoqlik ichida o‘tadi. U na o‘ziga, na oilasiga bu boylikdan foydalanishga imkon beradi. Bu ziqna odam uchun pul yashash uchun emas, balki pul yig‘ishning o‘zi yashash ma’nosiga aylangan.

Asarda pul va insoniylik o‘rtasidagi ziddiyat va chegaralar juda aniq chizib berilgan. Yevgeniya shu ziqna cholning qizi bo‘la turib, bu tizimga qarama-qarshi tomonda turadi. Qiz pulni emas, insoniy qadriyatlarni tanlaydi. Qiz pulni emas, sevgini tanlaydi…

Yevgeniya pulga mukkasidan ketgan muhitda ulg‘aygan bo‘lsa-da, otasidan mutlaqo farqli qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Uning Sharlga bo‘lgan muhabbati, bu yo‘ldagi sadoqati va qo‘lidagi bor boyligini sevgisi yo‘lida ayamasligi uning otasidan naqadar farq qilishini tushunishingiz uchun yetarli.

Ammo Balzak bu sevgi va Yevgeniya orqali sodda syujet qurmaydi. Muhabbatning faqat go‘zalligini ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Bu tuyg‘uning fojiaviy tomonini ham ochib beradi. Sharlning keyinchalik o‘zgarib, manfaatparastga aylanishi Yevgeniya sevgisining qurboniga aylanishiga sabab bo‘ladi. Qiz pulidan ham, qalbidan ham ayriladi…

Ana shu yerga kelganda Balzak juda nozik bir fikrni ilgari surganini anglab yetdim. Yaxshi inson bo‘lish har doim ham baxtli bo‘lishni anglatmaydi. Achchiq bo‘lsa-da, bu haqiqat!

Hattoki sevgi ham jamiyat qonunlariga bo‘ysunadi. Ya’ni pul va manfaat ustuvor bo‘lgan muhitda sof tuyg‘ular yashab qolishi qiyin. Yashab qolsa ham, sevgi niqobini taqqan manfaat ko‘rinishida qalblarda ulg‘ayadi. “Qayerda ishlaydi?”, “Nechta mashinasi bor?” kabi savollar asosiy planga chiqadi. Tanish holatmi..?

“Yevgeniya Grande” asarida ham Balzak jamiyatni shunchaki musiqaviy orqa fon sifatida emas, balki inson xarakterini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida ko‘rsatgan. Asarda deyarli barcha ijtimoiy aloqalar — do‘stlik, qarindoshlik, hatto sevgi ham moliyaviy hisob-kitob asosida quriladi.

Albatta, Yevgeniya Grandening tuyg‘ulari bundan mustasno. Endi qizning ahvolini tasavvur qiling-a? Butun jamiyat, otang, qo‘shnilaring, jamiki taniganlaring va hattoki sevgan insoning ham shunday kishilardan. Insonning qadr-qimmatini uning qancha pulga egaligi bilan belgilashadi…

Balzak Yevgeniyani bu tizimga qarshi qo‘yadi. U jamiyat qoidalariga moslashmaydi, balki ichki pokligini saqlab qoladi. Kitobni tugatarkanman, yozuvchi nima demoqchi ekanini tushungandekman.

Ya’ni jamiyatda qanchalik jirkanch va manfaatparast qoidalar ustuvor bo‘lmasin, insoniylikni saqlab qolish, yaxshi inson bo‘lib qolish ko‘proq o‘zingga bog‘liq. Faqat shu yaxshi bo‘lishning badalini to‘lashga tayyor bo‘lsangiz bas. Chunki bu dunyo yaxshilar uchun har doim qiyin, juda ham qiyin…

GRIGORIY PETROV – “OQ NILUFARLAR O‘LKASI”

Finlandiya aholisi baxtiyorlik indeksi (Happines index)da 9 yildan buyon 1-o‘rinda. Bu odamlar dunyodagi eng baxtli insonlar deb ataladi.

Ular Nokiani ishlab chiqarib, yer yuzi bo‘ylab 15 mlrd. nusxadan ko‘p sotishgan. Butun dunyodagi 2-3 odamdan biri hech bo‘lmaganda bir marta Nokia ishlatib ko‘rgan ekan. 3-4 mln. aholiga ega Finlandiyaning qilgan ishini qarang!

Ta’lim sifati, tibbiy xizmat, aholining turmush darajasi bo‘yicha ham eng yuqori o‘rinda turishadi. 600 yildan ko‘proq Shvetsiya, 100 yildan ko‘proq Rossiya mustamlakasi bo‘lgan bu davlat hozirda dunyoning eng kuchli TOP 15 iqtisodiyotidan biriga aylangan.

Aholi jon boshiga YAIM 55-60 ming dollarni tashkil qiladi. Solishtirib ko‘rishingiz uchun ayni shu ko‘rsatkich bizda 2-2,5 ming dollarni tashkil qiladi. Kimdir “ha, endi ularda 3-4 mln. aholi bo‘lsa, bizda esa salkam 40 mln. odam yashaydi. Ularda kattaroq raqam chiqishining sababi shu” deyishi mumkin. Men ham shunday o‘ylagandim.

Ammo Finlandiyaning yillik iqtisodiyot hajmi 300 milliard dollarni, O‘zbekistonniki 100 milliard dollarni tashkil etishini ko‘rgach yuqoridagi bahonamiz ham barbod bo‘ladi. Ya’ni aholi jon boshiga ularning ko‘proq daromad qilishi finlarning kam ekani bilan emas, har biri sifatli va qimmat qiymatga ega kadr ekani bilan bog‘liq.

Yaqin tarixda aksar qismi botqoqlardan tashkil topgan, aholisi bezgak va yuqumli kasalliklardan vafot etadigan, ochlikda kun kechiradigan, ichkilikka berilgan, poraxo‘r, sifatsiz tibbiyot va ta’limga ega davlat edi.



Ular 3-4 millionlik xalqi bilan qisqa muddatda qanday qilib bu darajaga chiqqanini tushunishning eng oson yo‘li Grigoriy Petrovning “Oq nilufarlar o‘lkasi” kitobini o‘qishdir.

Bu kitob sizga botqoqlar diyorining qanday qilib gullar, oq nilufarlar o‘lkasiga aylanish tarixini hikoya qiladi. O‘qigan odamda o‘zgacha hislar kechadi. Ichdan titraydi, vatanparvar hislarga burkanadi. Biz o‘zbeklar o‘qishimiz shart bo‘lgan kitob!

MARK TVEN – “TOM SOYERNING SARGUZASHTLARI”

Asar bosh qahramoni Tom Soyer ismli sho‘x va jamiyat qoidalariga qarshi ish qilishni yaxshi ko‘radigan, xolasi qo‘lida tarbiya ko‘rayotgan bolakay.

Voqealar kichik shaharchada boshlanadi. Tom maktabdan qochadi, turli sho‘xliklar qiladi. Unga jazo sifatida topshirilgan devor bo‘yashni esa o‘yinga aylantirib, bu “noyob vazifani” faqat eng yaxshi narsalar evaziga almashadi.

Hattoki Tom o‘rtoqlari Halkberri Fin va Jo Harper bilan orolga qochib, o‘zlari tasavvur qilgan “qaroqchilardek” yashab ko‘rishadi.

Umuman olganda, bu asar bolalikni, uning o‘ziga xos qonunlarini, erkinlikka bo‘lgan ehtiyojini va insonning butun hayoti davomidagi eng tabiiy holatini ochib beradi. Kitobni o‘qiganda voqealardan ko‘ra ko‘proq bir paytlardagi o‘zingizni, qiziqishlaringizni kuzatib borayotgandek bo‘lasiz.

Kitob butun dunyoda maktab darsliklarida bolalarga o‘qitiladi. Chunki unda qo‘ruv va jasorat, haqiqatni tanlay olish kabi juda ko‘p fazilatlarni ko‘rish mumkin. Muallif inson psixologiyasini ham juda o‘rnida ko‘rsatib bera olgan. Shu sababdan katta yoshdagi odamlar ham bu kitobni o‘qib bolaligiga qaytishi, ruhiy ozuqalar olishi mumkin. Va yana kitobni sifatli holatda, kreativ dizayn bilan o‘qish ham o‘zgacha zavq beradi.

Agar bir paytlardagi o‘zingizni, qoliplarga sig‘maydigan sho‘xliklaringiz, chegarasiz va biror manfaatsiz orzu qilgan narsalaringizni eslashni xohlasangiz, bu kitob bilan o‘sha manzilga to‘g‘ri yetib bora olasiz. Oq yo‘l tilayman.

Muhiddin NIDO

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497